

**Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh  
boshqarmasida 2026-yil 1-yarim yilligi uchun korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT**

2026 yil 1-iyul holatiga

**I. Davlat tashkilotining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi  
bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot<sup>1</sup>**

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish borasida O‘zbekiston Respublikasiining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son, 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmoni va boshqa yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlari talablari asosida muvofiqlashtirilib borilmoqda.

Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komplaens nazorati mutaxassisining 2026-yilga mo‘ljallangan Ish rejasi tasdiqlangan bo‘lib, ushbu Ish rejaga asosan xizmat jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlarini belgilash, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni kelib chiqish sharoitlarini o‘rganish, taxlil qilish va unga qarshi kurashish choralarni ko‘rish, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini xizmat tekshiruvi orqali aniqlash va haqqoniy baho berish yuzasidan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida Samarqand viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasi boshlig‘ining 2023-yil

---

<sup>1</sup>Ushbu b‘limda va keyingi ‘rinlarda hisobotning har bir b‘limi b‘yicha quyidaqilarni k‘rsatish kerak:

- Markaziy apparat, hududiy b‘linmalar va tarkibiy tashkilotlar kesimida hisobot davri uchun umumlashtirilgan k‘rinishda ma‘lumotlar. Agar zaruriyat b‘lsa, alohida b‘linmalar va ular b‘yicha ma‘lumotlarni k‘rsatish;
- Zaruriyat tu‘gilganda avvalgi davrlar k‘rsatkichlari bilan solishtirma taxlil ‘tkazish, koniqaarli natijalarqa ‘riishganlik\‘riishmagalik sabablariini k‘rsatish lozim.

6-sentabrdagi 72-sonli buyrug‘i qabul qilindi hamda ushbu buyruq bilan barcha mas’ul xodimlar tegishli Qaydnoma asosida tanishtirildi.

Shuningdek, Samarqand viloyat viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasi ijtimoiy tarmoqlarida Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan **aloqa kanallari** <http://samvilqurilish.uz>, <https://www.facebook.com/samvilqurilish>, <https://instagram.com/samvilqurilish> saxifalari hamda 66-233-21-04 ishonch telefoni tashkil qilingan.

Bosh boshqarma binosining kirish qismida axoliga qulay bo‘lgan joyda “Korrupsiya haqida yozma yashirin murojaat qilishlari uchun” quti, plakat va maxsus dasturiy ta’minot infokiosk o‘rnatilgan.

Sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar bo‘yicha bosh boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlari orqali 28 ta targ‘ibot tashviqot ishlari o‘tkazildi, shu jumladan 2 marotaba "Manfaatlar to‘qnashuvi va Korrupsiya qarshi kurashish" va 4 marotaba huquqiy mavzusida tadbirlar o‘tkazildi.

## **II. Siyosat va tartib-taomillar**

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida Samarqand viloyat qurilish Bosh boshqarmasining 2023-yil 6-sentabrdagi 72-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining mazkur buyrug‘i bilan:

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati (1-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti (2-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom (3-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti (4-ilova) ;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma (5-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma (6-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma (7-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (8-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom (9-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament (10-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik Ko‘rsatkichlari (11-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi Nizom (12-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tarkibiy va xududiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi mas‘ul xodimlari va koordinatorlari to‘g‘risidagi namunaviy Nizom (13-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi odob-axloq Komissiyasi to‘g‘risida Nizom (14-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, hududiy bo‘linmalari va uning tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha moddani kiritish to‘g‘risida Yo‘riqnoma (15-ilova) tasdiqlangan.

Ushbu xujjatlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan seminarlar o‘tkazilib, ushbu xujjatlar mazmun mohiyati yuzasidan tushunchalar berildi.

2026-yil 27-fevral kuni “ O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2026-yil 23-fevraldagi 20-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida ” Samarqand viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 39-I/Ch-son buyrug‘i qabul qilindi.

#### **Mazkur buyruq bilan:**

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasini

ko‘rib chiqish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligihuzurida tuzilgan Maxsus komissiya tarkibi;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibito‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi.

2026-yil 15-iyun kuni “Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tizimida Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 94-I/Ch-son buyrug‘i tasdiqlandi.

2026-yil 18-iyun kuni bosh boshqarmaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassisi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 11-iyundagi 87-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi faoliyati to‘g‘risidagi Nizom” to‘g‘risida 99I/Ch-son buyrug‘i tasdiqlandi.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash<sup>2</sup>**

Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik bosh boshqarmasida O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash Uslubiyoti”ning 2-ilovasiga asosan korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yhati shakllantirildi.

### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar**

#### **Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.**

Samarqand viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasiga ishga qabul qilingan xodimlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli buyrug‘i 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bolinmalarida manfaatlar toqnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom”ning 3-ilovasi “Ishga qabul qilinayotganida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to‘g‘risidagi ariza” (deklaratsiya) muntazam ravishda to‘ldirilib, deklaratsiyada ko‘rsatilgan masalalar tahlil qilinib kelinmoqda hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom talablariga asosan bosh boshqarmaning barcha

---

<sup>2</sup> Бўлим фақат ҳар йиллик ҳисобот даврида тўлдирилади. Мазкур бўлимда Ташкилот тизимида коррупциявий хавф-хатарни баҳолашни ўтказиш услугиётига мувофиқ амалга оширилган хавф-хатарларни баҳолаш натижалари бўйича таҳлилий ахборот акс эттирилади.

81 nafar xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirilib, har bir deklaratsiya tahlil qilindi.

### **Tahlil natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:**

Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining ikki nafar xodimi tomonidan xususiy tadbirkorlik faoliyati tashkil etilganligi aniqlangan.

Yuqorida aniqlangan holatlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 2024- yil 5- iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi"gi O'RQ-931-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining tegishli moddalariga asosan nomlari ko'rsatilgan xodimlar nomiga ochilgan tadbirkorlik faoliyatini tugatilishi bo'yicha tegishli choralar ko'rib, aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holati to'liq bartaraf etildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-yanvardagi 05-sonli buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar"ga asosan bosh boshqarmaga ishga qabul qilinayotgan xodimning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilib, ushbu xodimlar mehnat shartnomasi bilan tanishganligini ularning imzosi bilan tasdiqlanib kelinmoqda.

### **Kontragentlarni tekshirish**

2026-yilning birinchi yarim yilligi davomida viloyat qurilishi va uy-joy kommunal xo'jaligi Bosh boshqarmasi va pudratchi tashkilotlar bilan tuzilgan **44 ta** xo'jalik shartnomalari reestri tuzilib, Kontragentlarning nomi, STIR, taqdim etilgan xujjatlari asosida barcha kontragentlar belgilangan tartibda tekshirishdan o'tkazildi.

### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Bosh boshqarmasiga yangi xodimlarni ishga qabul qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoniga asosan boshqarma tizimidagi vakant lavozimlarga tanlov e'lon qilinib, nomzodlar 3-bosqichdan iborat ishga qabul qilish jarayonidan o'tgan holda ishga qibul qilinib kelinmoqda.

2026-yilning birinchi yarim yilligi davomida 10 ta vakant bo'lgan (davlat xizmatchisi toifasiga kiradigan) lavozimga tanlov e'lon qilinib, 240 ta nomzodlardan yuqoridagi tartib asosida g'olib bo'lgan **10 ta** nomzodlar bilan mehnat shartnomalari tuzildi.

## **V. Ta'lim va kommunikatsiya**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2023-yil 28-oktabrdagi 225-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida xujjatlar ijrosi yuzasidan bosh boshqarmada Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish, manfaatlar to'qnashuvi yo'l qo'yimaslik, davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha o'quv seminarlari o'tkazilib, mutasaddilarga ushbu vazifalarni mas'uliyat bilan yondoshgan holda to'laqonli bajarish lozimligi haqida ko'rsatmalar berildi.

Samarqand viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi hamda tuman va shahar bo'limlari tomonidan 2026-yilning birinchi yarim yilligi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan OAVda **28** ta targ'ibot materiallari chop etildi.

Boshqarma binosining kirish qismida axoliga qulay bo'lgan joyda **“Korrupsiya haqida yozma yashirin murojaat qilishlari uchun”** quti, plakat va maxsus dasturiy ta'minot infokiosk o'rnatildi.

2026-yilning yarim yilligi davomida **“Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi”** bilan bosh boshqarma xodimlarini malaka oshirisha maxsus o'quv kurslarida o'qitish uchun **4 ta** xodimga shartnoma rasmiylashtirilib, muvofaqiatli yakunlagan 4ta xodimga **Sertifikatlar** berildi.

2026-yilning yarim yilligi davomida bosh boshqarmaning **6ta xodimi** Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Samarqand viloyati filiali va Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand filiali hamkorligida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida ishtirok etishib, **Sertifikatlar** olishdi.

2026-yil 10-fevral va 22-aprel kuni viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida shafofolikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamda amalga oshirilayotgan islohatlarda fuqarolarni fikrini bilish maqsadida anonim so'rovnoma o'tkazildi.

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar**

Samarqand viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasida 2026-yilning birinchi yarim yilligi davrida davomida korrupsion xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar qayd etilmagan.

Bugungi kunda qurilish va shaharsozlik sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish uchun jamoatchilik bilan aloqada

bo‘lish maqsadida xabar berishga mo‘ljallangan barcha zarur aloqa kanallari ishga tushirilgan.

**Xususan,** ishonchi telefoni **(66-233-21-04), telegram bot** (<https://t.me/samvilqurilish>), **feysbuk** (<https://www.facebook.com/samvilqurilish>), **instragram** (<https://instagram.com/samvilqurilish>) ijtimoiy tarmoqlarida va <https://samvilqurilish.uz> **WEB** saytida saxifalar tashkil etilgan.

Boshqarma binosining kirish qismida axoliga qulay bo‘lgan joyda **“Korrupsiya haqida yozma yashirin murojaat qilishlari uchun” quti, plakat va maxsus dasturiy ta‘minot infokiosk o‘rnatilgan.**

Boshqarmada korrupsion burchak va korrupsiya holatlari oqibati yuzasidan video roliklar monitori o‘rnatildi.

## **VII. Monitoring va nazorat<sup>3</sup>**

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik vazirligi tomonidan berilayotgan topshiriqlar va viloyat hokimligi tomonidan berilgan vazifalarning hamda vazirlikning 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash yuzasidan joylarda ijro intizomi holatini maqsadli o‘rganish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ijro holatlarini korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani o‘rganilib, kamchiliklarni bartaraf yetish yuzasidan ko‘rsatmalar berib borilmoqda.

Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasida 6 oy davomida jami 27ta monitoring o‘rganishlar va **5 ta** xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi, xizmat tekshiruvlarining **barchasi** huquqiy baho berish uchun HMQO ga yuborilgan.

Bosh boshqarmaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarori 2-ilovasiga muvofiq bosh boshqarmaning tegishli ma’sul xodimlari ishtirokida noturar joy toifasidan turar joy toifasiga qayta ixtisoslashtirish bo‘yicha berilgan 27 ta ruxsatnomalar joyida o‘rganib chiqildi.

## **XIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari**

2026-yilning birinchi yarim yilligi yakuni bilan viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarning buzilganligi holatlari qayd etilmadi.

Shuningdek, **2026-yil yarim yilligi davrida** o‘z xizmat faoliyatida mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘yganligini uchun bosh boshqarmaning **10 nafar**

---

<sup>3</sup> Tashkilotda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi proceduralariga rioya kilingan monitoring va nazorat qilish uslubiga muvofiq qaratilgan tadbirlar yuzasidan boshqarmaning bosh mutaxassisi tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarori 2-ilovasiga muvofiq bosh boshqarmaning tegishli ma’sul xodimlari ishtirokida noturar joy toifasidan turar joy toifasiga qayta ixtisoslashtirish bo‘yicha berilgan 27 ta ruxsatnomalar joyida o‘rganib chiqildi.

xodimiga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Kodeksining 215<sup>5</sup>-moddasi 1-qismiga asosan mehnatga to'lashning eng kam miqdorining turli miqdorlarida jarima intizomiy jazo chorasi va **15 nafar** xodimga O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 312-moddasi 1-qismiga asosan "hayfsan" intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

### **IX. Xulosalar**

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasida korrupsiyaga sarshi kurashish, korrupsiyaning og'ir oqibatlari xaqida batafsil tushunchalar berib borish orqali ushbu holatlarning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi qayd yetilgan vaziyatlarda zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko'rish, ma'sul xodimlarning ish faoliyati amaldagi qonun xujjatlari talablarini buzmaslik maqsadida muntazam ravishda o'quv soatlari va seminarlar o'tkazib borish lozim.

### **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

Tegishli tashkilotlar va oliy o'quv yurtlarining tajribali xodimlarini jalb qilgan holda davlat organlari va tashkilotlarining barcha darajadagi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oqibatlari borasida reja-grafik asosida o'qitish tizimini joriy qilish, o'quvlarda ishtirok etgan xodimlarga sertifikat berish.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida ta'lim beradigan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida "Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusida suhbar va treninglarni tashkil etish.

### **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat**

**bo'yicha bosh mutaxassis**

**M.Begimov**